

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Mirzayev K. M.

«O‘zbekiston tarixi va ijtimoiy fanlar» kafedrasida katta o‘qituvchisi
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
komil_mir@list.ru

O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqola O‘rta Osiyo hududida arxeologiya fanining rivojlanish tarixi va uning zamonaviy holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqola, shuningdek, O‘rta Osiyoda arxeologiya kafedrasining tashkil etilishi zarurati va uning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi rolini chuqur o‘rganadi. Hududning boy tarixiy va madaniy merosi, shuningdek, global arxeologik jamoatchilikdagi o‘rni tufayli O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining tashkil etilishi nafaqat ilmiy, balki madaniy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega ekanligi ta’kidlanadi. Maqola, ushbu yangi kafedra orqali o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar va ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga doir takliflar kiritadi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, arxeologiya, ilmiy tadqiqot, arxeologiya kafedrasida, madaniy meros, ta’lim dasturlari, global arxeologik jamoatchilik.

KIRISH

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti arxeologiya kafedrasida nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo bo‘ylab tanilgan yetuk arxeologiya ilmiy maktablardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu ixtisoslashgan ilmiy maktabning shakllanishi va ilmiy taraqqiyotga erishishida O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasida asoschisi, arxeologiya fanlari doktori (1936), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1944), tarix fanlari doktori, professor (1949), Turkmanistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1950), Turkmaniston Fanlar Akademiyasi haqiqiy akademigi (1951) Mixail Yevgenyevich Massonning hissasi beqiyosdir. 1939-yildan 1968-yilgacha O‘rta Osiyo Davlat universitetida (hozirgi Toshkent davlat universiteti) arxeologiya kafedrasida mudiri sifatida ishlagan Masson davrining eng nufuzli arxeologiya kafedralari faqat Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Kiyev universitetlarida mavjud bo‘lgan bir vaqtda, mintaqadagi yagona arxeologiya kafedrasini boshqargan. Dastlabki tarkibda kafedra mudiri, arxeologiya fanlari doktori, professor M.E.Masson, katta laborant T.G.Obolduyeva va arxeologiya kabinet mudiri laboranti K.I.Massonlar faoliyat yuritgan[1].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

M.E.Masson tomonidan asos solingan va Oʻrta Osiyoda birinchi boʻlib ixtisoslashgan arxeologiya maktabining vujudga kelishiga turtki boʻlgan. Ushbu maktab XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Oʻzbekiston, jumladan, butun Oʻrta Osiyo hududida sodir boʻlgan keng koʻlamli siyosiy oʻzgarishlarni tahlil qilish orqali shakllangan. Bu davr mobaynida uch xil siyosiy tuzum hukmronlik qilgan boʻlib, ularning har biri madaniy merosga oʻz taʼsirini oʻtkazgan [2].

1. Rossiya imperiyasi mustamlakasi boshqaruvi davri (1867 – 1917 yillar): Bu davrda Oʻzbekiston hududi Rossiya imperiyasining bir qismi sifatida uning ilmiy va madaniy siyosatiga kiritilgan. Oʻsha davrda arxeologiya sohasida rus olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, bu tadqiqotlar koʻpincha mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan va mahalliy aholining madaniyati va tarixiga kamroq eʼtibor qaratilgan.

2. Sovet hokimiyati hukmronligi davri (1917 – 1991 yillar): Sovet davrida arxeologiya fanining rivojlanishi davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlangan. Bu davrda Oʻrta Osiyo arxeologiyasi sovet ideologiyasi doirasida qayta shakllantirilgan, milliy tarix va madaniyatni qayta koʻrib chiqishga alohida eʼtibor berilgan. Sovet arxeologiyasi koʻpincha sinfiy kurash va materialistik tarixiy tushunchalarga asoslangan boʻlib, bu esa madaniy merosni baholashda yangi yondashuvlarni taqozo etgan.

3. Mustaqillik davri (1991-yildan keyingi davr): Mustaqil Oʻzbekistonning shakllanishi bilan birga milliy madaniy merosni oʻrganishda yangi bosqich boshlandi. Bu davrda Oʻzbekiston oʻz tarixi va madaniyatini qayta baholashga, jumladan, unutib qolingani yoki eʼtibordan chetda qolgan tarixiy va madaniy boyliklarni tiklash va ommalashtirishga harakat qilmoqda.

Oʻrta Osiyo davlat universitetining tarix fakulteti tarkibida arxeologiya kafedrasida oʻz faoliyatini yuritgan davrda, bir qator nufuzli olimlar va mutaxassislar oʻz sohalarida talabalarga bilim va koʻnikmalar berishga hissa qoʻshganlar. Jumladan, geografiya fanlari doktori N.G.Mallitsiy (Oʻrta Osiyo geografiyasi va etnografiyasi boʻyicha darslar), biologiya fanlari doktori L.V.Oshanin (antropologiya va antropogenezi boʻyicha), tarix fanlari doktori A.A.Semenov (sharqshunoslik), tarix fanlari doktori I.P.Petrushevskiy (Islomshunoslik), S.N.Zamyatin (umumiy arxeologiya va dala arxeologiya metodikalari kursi), xizmat koʻrsatgan fan arbobi prof. V.P. Smirnov (toʻrtlamchi davr konlari geologiyasi) kabi olimlar mazkur kafedrada dars berishgan [3].

Tarix fakultetining keyingi dekanlari, jumladan I.K.Dodonov, D.I.Laboshov, X.A.Yerzin, L.V.Gentshki va A.X.Xamrayevlar kafedra faoliyati uchun zarur boʻlgan sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berishgan. Ushbu olimlar va rahbarlar kafedraning ilmiy va oʻquv faoliyatini boyitishda va rivojlantirishda muhim rol

o‘ynaganlar. Ularning hissasi nafaqat o‘quv jarayonini takomillashtirishda, balki talaba-yoshlarning ilmiy fikrlashini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan [4].

O‘rta Osiyoda tashkil etilgan birinchi ixtisoslashgan arxeologiya maktabining asoschilari orasida faqatgina M.E.Masson emas, balki barcha kafedra jamoa a‘zolarining hissasi ham katta bo‘lgan. Ular yillar davomida birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va shu bilan birga arxeologiyaga qiziqadigan talabalarni jalb qilishgan. 1940 yil 5 aprel kuni Talabalar ilmiy-arxeologiya to‘garagi (SNAK)ning birinchi yig‘ilishi o‘tkazilgan [5]. Bu yig‘ilishda yosh tadqiqotchilar yangi metodlar va bilimlarni nafaqat auditoriya va ma‘ruzalarda, balki dala ekspeditsiyalarida ham o‘rganishgan. Kafedra faoliyati davomida yosh iqtidorlarni tarbiyalashda shaxsiy na‘muna ko‘rsatish tamoyiliga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kafedraning asosiy maqsadi mustaqil arxeologik tadqiqotlar olib borish qobiliyatiga ega, manbalar ustida chuqur tahlil yuritish va yuqori malakali arxeolog kadrlarni tayyorlash bo‘lgan. Bunda, kafedra hech qachon faqat nomzodlik dissertatsiyasini tayyorlashni maqsad qilib qo‘ymagan, balki talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga katta e‘tibor bergan[6]. Bu yondashuv orqali kafedra nafaqat ilmiy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar hamda yuqori etik me‘yorlarni o‘zlashtirishda yordam beruvchi muhit yaratgan.

O‘rta Osiyo arxeologiya kafedrasi, M.E.Masson rahbarligida 27 yil davomida faoliyat yuritgan bo‘lib, nafaqat O‘zbekiston, balki Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston va Shimoliy Kavkaz kabi davlatlarda ham yetuk arxeolog mutaxassislarini tayyorlab chiqqan. Ushbu ilmiy maktabning tarbiyalanuvchilari O‘rta Osiyo xalqlarining o‘tmishini yoritishda muhim ishlarni amalga oshirishgan [7].

Tojikiston Respublikasi hududlarida o‘tkazilgan arxeologik ishlarning katta qismi ushbu kafedra mutaxassislarining hissasi bilan amalga oshirilgan. Masalan, Qozog‘istonning turli hududlarida, jumladan Jambul tumanida qadimgi dehqonchilik manzilgohlarining kashf etilishi va Chordara suv ombori atrofida ko‘p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar M.S. Mershiyevning ishlari tufayli amalga oshirilgan [8]. Shuningdek, kafedraning YUTAKE tadqiqotlarida qatnashgan X.Alpisboyevning faoliyati, ayniqsa tosh davriga oid qiziqarli va avval kashf etilmagan yodgorliklarning ochilishida katta hissa qo‘shgan [9].

Bu ilmiy faoliyatlar orqali Masson rahbarligidagi kafedra, nafaqat O‘zbekiston balki butun Markaziy Osiyo regionida arxeologiya sohasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, bu mintaqada arxeologik tadqiqotlar va ilmiy bilimlarning asosiy manbai hisoblanadi. Kafedra faoliyati va uning yutuqlari, ushbu

hududlarning tarixini yanada chuqurroq tushunish va o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qirg'iziston Respublikasi hududlarida O'rta Osiyo arxeologiya kafedrası tarbiyalanuvchilarining olib borgan arxeologik ekspeditsiyalari, ayniqsa shimoliy va janubiy hududlarda o'rta asrlarga oid aholi manzilgohlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. 1974 va 1977 yillar davomida Tyan-Shan tog'larining Ketmen-Tube vodiysida joylashgan To'xtag'ul suv omborining sel zonasida 20 ga yaqin tarixiy aholi manzilgohlarining relyefi Y.Z. Zaurova tomonidan o'rganilgan. 1978 yilda esa Chu vodiysi o'rtalaridagi tarixiy manzilgohlarda arxeologik qazish ishlari davom ettirilgan [10].

Shuningdek, P.N. Kojemyakovning ko'p yillik tadqiqotlari davomida Talas, Tyan-Shan va Chuy vodiysidagi shaharlar tarixiy geografiyasi va arxeologik topografiyasini o'rganishga qaratilgan. Arxeologik qazish ishlarida V.D. Goryacheva va P.P. Gavryushenko ham muhim rol o'ynaganlar [11].

Turkmaniston Respublikasida esa M.Y. Masson rahbarligida 1946 yilda tashkil etilgan Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Ushbu ekspeditsiya Niso va Ko'hna Marv shahar harobalarida yillar davomida olib borilgan arxeologik qazish ishlarida qadimgi arxeologik yodgorliklarni ochishda ulkan yutuqlarga erishilganini ta'kidlash muhimdir.

O'rta Osiyo arxeologiya maktabi ko'plab nufuzli olimlarni yetishtirgan bo'lib, ulardan bir qatorlari jahon miqyosida tanilgan akademiklar sifatida e'tirof etilgan. Bular orasida B.A. Litvinskiy, V.M. Masson, V.I. Sarianidi, Y.F. Buryakov, E.V. Rtveladze va A.S. Sagdullaevlar mavjud. Ushbu olimlar O'rta Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim hissa qo'shgan.

O'rta Osiyo arxeologiya kafedrası Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Tarix fakulteti tarkibida faoliyat yuritib kelgan va u yerda tarix va arxeologiya bo'yicha darslar o'tilgan. Kafedraning ko'zga ko'ringan tarbiyalanuvchilari orasida G.E.Afanasev, E.A.Davidovich, A.A.Kudryavsev, V.N.Pilipko, R.H.Sulaymonov, V.A.Bulatova, N.I.Krashennikova, M.I.Filanovich, M.N.Fedorov, D.A.Alimova, Sh.R.Pidaev, T.K.Mkrlichev kabi olimlar bor. Ayniqsa, S.B.Lunin, Z.I.Usmanova va A.Sagdullayev kabi olimlar alohida e'tiborli bo'lib, ular kafedra mudiri sifatida ko'plab yillar davomida arxeologik ekspeditsiyalarga rahbarlik qilganlar va talabalarga dars berishgan [12].

Kafedra bitiruvchilari, nafaqat arxeologiya, balki umumtarixiy bilimlarga ham ega bo'lganlar, bu esa ularning tarix fanining boshqa sohalarini ham rivojlantirishga yordam bergan. Hozirgi kunda kafedra bitiruvchilari O'zFA Arxeologiya Milliy markazi, San'atshunoslik instituti, Tarix instituti, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda respublikaning universitetlari va viloyat muzeylarida

faoliyat yuritib, ilmiy-tadqiqot, pedagogika-tarbiyaviy va tarixiy-madaniy merosni targ'iboti sohalarida samarali ishlar amalga oshirishmoqda. Ushbu faoliyatlar orqali ular O'rta Osiyo tarixini yanada chuqurroq tushunish va uni kengroq jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini yaratmoqdalar.

Bugungi kunda O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti arxeologiya kafedrası t.f.d. F.B.Ochildiyev rahbarligida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Kafedra jamoasi, shuningdek professor-o'qituvchilar Mustaqil O'zbekistonning tarix fanida duch keladigan muhim dolzarb masalalarni hal etish, Vatan va jahon tarixini haqqoniy o'rganish va o'rgatish, hamda xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Bu faoliyatlar orqali kafedra O'zbekiston tarixiy merosini chuqurroq tushunish va uni kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek jahon hamjamiyatiga O'zbekistonning tarixiy va madaniy boyliklarini namoyish etishga qaratilgan. Kafedra jamoasi tarixiy tadqiqotlarni, ilmiy ishlarni va dars berish metodikalarini muntazam ravishda yangilab, talaba va tadqiqotchilarni zamonaviy arxeologik metod va yondashuvlardan foydalanishga undamoqda. Kafedra o'z faoliyati davomida turli xil arxeologik ekspeditsiyalarni ham tashkil etib kelgan bo'lib, bu orqali ilmiy-tadqiqot ishlari yanada boyitilgan va kengaytirilgan.

O'zbekistonning boy madaniy merosi va uning tarixiy ahamiyatini kengroq ochib berish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Jumladan, respublika bo'ylab turli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etish, tarixiy dalillarga asoslangan hujjatli filmlar ishlab chiqarish va ularni keng jamoatchilikka targ'ib qilish, arxeologik tadqiqot obyektlari hamda tarixiy manzilgohlar bo'yicha ekskursiyalar uyushtirish, teleko'rsatuv va radio eshittirishlar sonini ko'paytirish hamda axborot texnologiyalari yordamida tarixiy obidalar asl ko'rinishini namoyish etuvchi dasturlarni yaratish kabi faoliyatlar muhimdir.

XULOSA

Bu tadbirlar orqali yosh avlod ongida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish va milliy identitetni mustahkamlashga yordam beriladi. Shuningdek, milliy me'moriy yodgorliklardan unumli foydalanish, bu yodgorliklar atrofida turizm va madaniy aloqalarni rivojlantirish orqali respublika iqtisodiyotini mustahkamlash va madaniy merosimizni kengroq tanitish imkoniyatini beradi. Bu tadbirlar milliy merosimizni asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun saqlab qolishda ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ixtisoslashgan oliy arxeologiya maktablarining an'analari yangi asoslarda rivojlantirilishi zarur, chunki bugungi kunda global arxeologiya tarixiy-madaniy merosni o'rganish, uni targ'ib qilish va saqlab qolish sohalarida muhim

hissa qo'shmoqda va bu jarayonlar yosh avlodning madaniy rivojlanishini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ЎзМА ш/ф. М.Е. Массон «Среднеазиатская археология ТашГУ» Р-2723-фонд, 2-рўйхат, 18-иш, 9 б.
2. Научные труды, Археология Средней Азии VI, вып.200. Ташкент. 1963. Б. 7
3. «O'tmishga nazar» ilmiy jurnali. 4 jild, 4 son. B.86
4. Г. В. Длужневская. Археологические исследования в Центральной Азии и Сибири в 1859–1959 гг. (по документам Научного архива Института истории материальной культуры РАН). - СПб., 2011. 5 с.
5. Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.112. (Ahmedov M.Q. History of Central Asian Architecture. - T.: Uzbekistan, 1995. - P.112.)
6. Ўз МА ш/ф. М.Е. Массон «Среднеазиатская археология ТашГУ» Р-2723-фонд, 2-рўйхат, 18-иш. 1965. б. 20
7. Ўз МА ш/ф. М.Е. Массон «Среднеазиатская археология ТашГУ» Р-2723-ФОНД, 2-рўйхат, 18-иш. 1965. б. 32
8. Ўз МА ш/ф. М.Е. Массон “Тематика работ кафедры археологии исторический факультет ТашГУ по изучению Самаркандского городища Афрасиоба положение об Афрасиобской комплексной археологической экспедиции замечания и дополнения к проекту положения и др. Материалы АКЭ” Р-2723-фонд, 2-рўйхат, д. б.1-3
9. Научные труды, Археология Средней Азии VI, вып.200. Ташкент. 1963. Б. 7
10. Труды Ташкентского государственного университета им. В. И. Ленина, выпуск 295 Археология средней Азии VII Издательство. Фан» узбекской ССР ТТашкент. 1966 б.. 11
11. Ўз МА ш/ф. М.Е. Массон «Среднеазиатская археология ТашГУ» Р-2723-фонд, 2-рўйхат, 18-иш. 1965. б.. 46-47

Мирзаев К. М.

Старший преподаватель кафедры «История Узбекистана и общественных наук»
Каршинский инженерно-экономический институт
komil_mir@list.ru

НЕОБХОДИМОСТЬ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена анализу истории становления и развития археологической науки на территории Средней Азии, а также её оценке современного состояния. Особое внимание в работе уделяется необходимости создания кафедры археологии Средней Азии и её значению в научно-исследовательской деятельности. Отмечается, что с учётом богатого исторического и культурного наследия региона, а также его значимой роли в мировом археологическом сообществе, учреждение такой кафедры приобретает не только научную, но и культурно-просветительскую актуальность. В статье предложены направления разработки исследовательских и образовательных программ, которые могли бы реализовываться на базе данной кафедры.

Ключевые слова: Средняя Азия, археология, научные исследования, кафедра археологии, культурное наследие, образовательные программы, Глобальное археологическое сообщество.

Mirzaev K. M.

Senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan and social subjects»
Karshi Institute of Engineering and Economics
komil_mir@list.ru

REQUIREMENTS FOR THE ESTABLISHMENT OF THE DEPARTMENT OF ARCHAEOLOGY OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the analysis of the history of the formation and development of archaeological science in Central Asia, as well as an assessment of its current state. Particular attention is given to the need for establishing a Department of Central Asian Archaeology and its significance for scientific research. It is noted that, considering the region's rich historical and cultural heritage and its prominent role in the global archaeological community, the creation of such a department is of not only scientific but also cultural and

educational importance. The article outlines possible directions for the development of research and educational programs that could be implemented within the framework of this new department.

Keywords: Central Asia, archaeology, scientific research, department of archaeology, cultural heritage, educational programs, global archaeological community.